



THE ETYMOLOGY AND MODERN MEANING OF THE WORD "CYBER"

Tashtanboyev Ruzimat Tolib

Master's student at the University of Public Safety

E-mail: rozimattoshtanboyev@gmail.com

Tel: +998 99 638 98 99

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19413939>

ARTICLE INFO

Received: 24th March 2026

Accepted: 30th March 2026

Online: 31st March 2026

KEYWORDS

Cyber, etymology,
cybernetics, governance,
kybernētēs, kybernao,
digital technologies,
cyberspace, cybersecurity

ABSTRACT

This article provides a scientific analysis of the etymology and modern meaning of the term "cyber." The study traces the origin of the term to the ancient Greek words "kybernētēs" and "kybernao," which denote "to govern" and "to steer." Special attention is given to the introduction of the term "cybernetics" by Norbert Wiener and its role in shaping a new scientific paradigm. The article also explores the transformation of the concept of "cyber" from its original meaning related to control and governance into a broad modern term associated with digital technologies, the internet, and virtual environments.

ЭТИМОЛОГИЯ И СОВРЕМЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ СЛОВА "КИБЕР"

Таштанбоев Рузимат Толиб угли

магистрант Университета общественной безопасности

E-mail: rozimattoshtanboyev@gmail.com

Тел: +998 99 638 98 99

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19413939>

ARTICLE INFO

Received: 24th March 2026

Accepted: 30th March 2026

Online: 31st March 2026

KEYWORDS

Кибер, этимология,
кибернетика,
управление, kybernētēs,
kybernao, цифровые
технологии,
киберпространство,
кибербезопасность.

ABSTRACT

В данной статье проводится научный анализ этимологии и современного значения термина «кибер». Рассматривается происхождение данного слова от древнегреческих понятий «kybernētēs» и «kybernao», обозначающих «управление» и «направление». Особое внимание уделяется введению термина «кибернетика» в научный оборот Норбертом Винером и его роли в формировании нового научного подхода. В статье также раскрывается процесс трансформации понятия «кибер» — от первоначального значения «управление» к современному широкому пониманию, связанному с цифровыми технологиями, интернетом и виртуальным пространством.



“KIBER” SO‘ZINING ETIMOLOGIYASI VA ZAMONAVIY MA’NOSI

Tashtanboyev Ruzimat Tolib o‘g‘li

Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura talabasi

E-mail: rozimattoshtanboyev@gmail.com

Tel: +998 99 638 98 99

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19413939>

ARTICLE INFO

Received: 24th March 2026

Accepted: 30th March 2026

Online: 31st March 2026

KEYWORDS

Kiber, etimologiya, kibernetika, boshqaruv, kybernētēs, kybernao, raqamli texnologiyalar, kibermakon, kiberxavfsizlik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada “kiber” so‘zining etimologik kelib chiqishi va zamonaviy semantik mazmuni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda mazkur atamaning qadimgi yunon tilidagi “kybernētēs” hamda “kybernao” so‘zlariga borib taqalishi, ularning “boshqarish” va “yo‘naltirish” ma‘nolarini ifodalashi asoslab beriladi. Shuningdek, Norbert Wiener tomonidan “kibernetika” atamasining ilm-fanga kiritilishi orqali ushbu tushunchaning yangi ilmiy bosqichga o‘tishi yoritiladi. Maqolada “kiber” atamasining dastlabki boshqaruv mazmunidan zamonaviy raqamli texnologiyalar, internet va virtual makon bilan bog‘liq keng qamrovli tushunchaga aylanish jarayoni ochib beriladi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar, internet va axborot-kommunikatsiya tizimlari jadal rivojlanib borayotgan bir sharoitda “kiber” atamasi kundalik hayotimizda keng qo‘llaniladigan tushunchalardan biriga aylandi. Ushbu atama turli sohalarda — xususan, kiberxavfsizlik, kiberjinoyatchilik, kibermakon kabi terminlar tarkibida faol ishlatiladi. Shu bois “kiber” so‘zining kelib chiqishi va mazmunini etimologik jihatdan o‘rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

“Kiber” so‘zining qadimgi ildizlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, “Kiber” so‘zining etimologiyasi qadimgi yunon tiliga borib taqaladi. U “kybernētēs” (κυβερνήτης) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “kema boshqaruvchisi”, “rulda turuvchi”, “yo‘lboshchi” degan ma‘nolarni anglatadi. Mazkur so‘z boshqaruv, nazorat va yo‘naltirish tushunchalari bilan bevosita bog‘liq

bo‘lgan[7] Buning qisqacha tarixi haqida Iliazi fatmir o‘zining “Facebook” ijtimoiy trmog‘ida “Ancient Albanian language the common Proto-Indo-European language”[8] nomli ilmiy matnida quydagicha keltradi: “κυβερνάω” (kybernao) — “boshqarish” yoki “yo‘naltirish” degan ma‘noni bildiruvchi so‘z bo‘lib, u alban tiliga borib taqaladi. “Krye-ban-na” shaklini tarkibiy qismlarga ajratsak:

1. “krye” — bosh, rahbar
2. “ban” — qiladi
3. “na” — bizni

Natijada “krye ban na” iborasi hosil bo‘ladi, bu esa alban tilida “u bizni boshqaradi” yoki “u bizni yo‘naltiradi” degan ma‘noni anglatadi. Bu etimologiya shuni ko‘rsatadiki, boshqaruv yoki yo‘naltirish tushunchasi rahbarlik va yo‘l ko‘rsatish g‘oyasiga borib taqaladi.

Robert Beekesning fikriga ko‘ra “kybernao” so‘zi asl yunoncha ham



bo'lasligi mumkin balki u yunonlardan oldin yashagan xalqlardan (pre-Greek) o'tgan ya'ni O'rta yer dengizi hududidagi qadimgi noma'lum tilga tegishli bo'lishi mumkin Oddiy qilib tushuntradigan bo'lsak, bu so'zni yunonlar o'ylab topmagan, undan oldingi xalqlardan olingan bo'lishi mumkin.

Günter Neumanning fikriga ko'ra bu so'zni boshqa yunoncha so'z — “κῦρβεις (kúrbeis)” bilan bog'lashga harakat qilgan u so'z “yumaloq yog'och predmet” degan ma'noda keltrgan, oddiy qilib aytadigan bo'lsak, u bu so'z boshqa o'xshash yunoncha so'zdan kelib chiqqan bo'lishi mumkin deb o'ylagan.

Alban tilining bu qadimiy so'zni deyarli o'zgarmagan holda saqlab qolganligi, ingliz tilida esa u “**governance**” (boshqaruv) kabi shakllarga aylanganligi, bu tilning hind-yevropa tillari oilasidagi o'ziga xos o'rnini va qadimgi ildizlarni saqlab qolish qobiliyatini namoyon etadi.

Shuningdek, ushbu ildizdan kelib chiqqan “**kybernao**” (κῦβερνάω) fe'li “boshqarish”, “nazorat qilish” ma'nolarini bildiradi. Demak, “**kiber**” so'zining dastlabki semantik asosida aynan “**boshqaruv**” g'oyasi yotadi. Shu boisdan ispanlar bu atamani asosan virtual olamga va u bilan bog'liq holatlarga nisbata emas, balki boshqaruv yuzasidan foydalanishadi[9]

Vaqtlar o'tishi bilan “**Kibernetika**” tushunchasining paydo bo'lishi XX asrga kelib mazkur ildiz yangi ilmiy mazmun kasb etdi. 1948-yilda amerikalik **matematik** va **olim Norbert Wiener** tomonidan “**cybernetics**” (**kibernetika**) atamasi ilm-fanga kiritildi. Bu har qanday tizim boshqarilishini ifodalaydi, masalan avval davlat boshqaruvi, inson faoliyati

boshqaruvi, mexanik qurilmalar boshqaruvi. Keyinchalik boshqaruv faqatgina inson emas, boshqaruv har qanday tizimda boshqaruv bo'lishini ayon bo'ldi. Kompyuter paydo bo'ldi, boshqaruv raqamlashtirildi, shu vaziyatda aynan “**kiber**” – “**boshqaruv**” tamasi kompyuter texnologiyalariga kirib kelgan.

Keyinchalik kibernetika fani paydo bo'ldi, bu tirik organizmlar, texnik qurilmalar va ijtimoiy tizimlarda boshqaruv va axborot almashinuvi qonuniyatlarini o'rganadigan fan hisoblanadi. Bu yerda ham asosiy e'tibor tizimlarni boshqarish, nazorat qilish va muvofiqlashtirish jarayonlariga qaratilgan.

Zamonaviy davrda “**kiber**” atamasining transformatsiyasi, vaqt o'tishi bilan “**cyber**” so'zi qisqarib, mustaqil prefiks sifatida keng qo'llanila boshladi. Ayniqsa, internet va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida bu atama yangi semantik mazmun bilan boyidi.

Hozirgi kunda “**kiber**” - kompyuter tizimlari, axborot texnologiyalari, internet tarmoqlari, virtual makon bilan bog'liq barcha jarayonlarni anglatadi. Masalan: **kiberxavfsizlik** — axborot tizimlarini himoya qilish, **kiberjinoyat** — raqamli muhitda sodir etiladigan huquqbuzarlik, **kibermakon** — virtual axborot muhiti. Shu tariqa, “**kiber**” tushunchasi dastlabki “**boshqaruv**” ma'nosidan kengayib, bugungi kunda raqamli dunyo va virtual tizimlarni ifodalovchi umumiy atamaga aylangan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, “**Kiber**” so'zining etimologik tahlili shuni ko'rsatadiki, u qadimgi yunon tilidagi “**boshqarish**” va “**yo'naltirish**”



ma'nolaridan kelib chiqqan bo'lib, zamonaviy davrda raqamli texnologiyalar bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi keng qamrovli termin sifatida shakllangan. Ayniqsa, kibernetika fanining rivojlanishi

ushbu atamaning ilmiy asosda mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Bugungi kunda esa "kiber" tushunchasi global raqamli muhitning ajralmas qismi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

References:

1. Norbert Wiener Cybernetics: Or Control and Communication in the Animal and the Machine - MIT Press, 1948.
2. Norbert Wiener The Human Use of Human Beings: Cybernetics and Society — Houghton Mifflin, 1950.
3. Robert Beekes Etymological Dictionary of Greek - Brill, 2010.
4. Pierre Chantraine Dictionnaire étymologique de la langue grecque - Paris, 1968–1980.
5. Stefan Schumacher & Joachim Matzinger Die Verben des Altalbanischen: Belegwörterbuch, Vorgeschichte und Etymologie - 2013.
6. Eqrem Çabej Studime Etimologjike në Fushë të Shqipërisë (Alban tilining etimologiyasi)
7. Etimologiya "Kiber" // URL: <https://en.wiktionary.org/> (murojat sanasi: 21.03.2026)
8. [Ancient Albanian language the common Proto-Indo-European language](https://www.facebook.com/FatmirIliazi/) // URL : <https://www.facebook.com/FatmirIliazi/> (murojat sanasi: 21.03.2026)
9. Etimologiya: gubernatura // URL: <https://buenospanish.com/> (murojat sanasi: 21.03.2026)